

“TASDIQLAYMAN”

**Qarshi shahridagi Prezident
maktabi ijrochi direktori v.v.b**



S.Sodiqov

2022-yil “14” sentyabr

**Qarshi shahridagi Prezident maktabiga yuqori sifatli Yotoqxona
buyumlari va sochiqlar xarid qilish uchun eng yaxshi takliflarni
TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH HUJJATLARI**

MUNDARIJA

- I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA
- II. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI
- III. TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARIGA ILOVALAR

I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA

1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (Tanlash) predmeti

Zamonaviy, Yotoqxona buyumlari va sochiqlar (matn davomida "Tovarlar") xarid qilish. Davlat buyurtmachisi – Qarshi shahridagi Prezident maktabi (matn davomida Buyurtmachi deb yuritiladi).

Tanlashning chegaralangan qiymati – 94 920 000 (to'qson to'rt million to'qqiz yuz yigirma ming) so'm.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlariga ko'ra g'oliblarni tanlash, ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida Tanlash xarid komissiyasi (matn davomida Komissiya deb yuritiladi) tomonidan aniqlanadi. Komissiya tarkibi Buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi.

2. Tanlash doirasida taqdim etiladigan har qanday hujjatlarning (ma'lumotlarning) maxfiyligi.

2.1. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash to'g'risidagi ma'lumotlar, tanlash o'tkazish vaqtida ham, u tugagandan so'ng ham, baholash tartibotiga rasmiy ravishda aloqador bo'lmagan shaxslarga xabar qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun Komissiyasi a'zolari, ishchi guruhlar va/yoki mutaxassislar guruhi javobgar bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi).

3. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan tushuntirish berish

3.1. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari (matn davomi – Tanlash hujjatlari) yuzasidan so'rov yuborish uchun ishtirokchilar davlat buyurtmachisiga quyidagi manzil bo'yicha murojaat yuborishi mumkin:

Qarshi shahridagi Prezident maktabi.

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi Shahar, Mustaqillik shoh ko'chasi 1-uy.

Tel: +99899-662-26-57.

Mas'ullar: B.Mamatqulov va E.Muminov.

3.2. Tanlash hujjatlari yuzasidan tushuntirishlar berish bo'yicha so'rov, tanlash ishtirokchisi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati tugashidan kamida ikki kun oldin yozma ravishda so'ralishi mumkin. Davlat buyurtmachisi ko'rsatilgan so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tushuntirish javobini yuborishi shart.

4. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini tayyorlash va taqdim etish

4.1. Tanlash ishtirokchisi o'zining tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi va Komissiya tanlash natijalaridan qat'iy nazar mazkur xarajatlarni uchun javobgar bo'lmaydi.

4.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflari unga bog'liq hujjatlar hamda ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasidagi barcha yozishmalar o'zbek yoki rus tillarida bo'lishi lozim.

4.3. Tanlash ishtirokchilari o'z takliflarini elektron shaklda Davlat buyurtmachisi tomonidan davlat xaridlari tizimiga (matn davomida – Tizim) joylashtirilgan e'lon muddati tugagunga qadar taqdim etishlari mumkin.

4.4. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli. Ishtirokchining taklifiga tanlash predmeti hisoblangan barcha tovarlar kiritilishi lozim.

4.5. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tanlashning chegaralangan qiymatidan 1% miqdorida zakalat o'tkazishlari lozim.

5. Tanlash taklifiga kiradigan hujjatlar

5.1. Tanlash taklifi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- korxona faoliyatiga oid hujjatlari (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi);
- texnik taklif (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi);
- narx taklifi (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi).

6. Malakaviy saralash

6.1. Malakaviy saralash uchun qo'yilgan talablar:

-tanlash ishtirokchisining umumiy ma'lumoti haqida ma'lumotnoma (ma'lumotnoma shakli 1-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati (kafolat xati shakli 2-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzдорligi mavjud emasligi to'g'risida soliq organidan olingan ma'lumotnoma;

-ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza (erkin shaklda).

7. Texnik taklif

7.1. Ishtirokchi texnik taklif jadvalining asl nusxasini, ushbu yo'riqnomaga ilova qilingan 3-sonli ilovaga muvofiq rasmiylashtirib tizim orqali elektron shaklda taqdim etishi lozim.

7.2. Texnik taklif tanlash hujjatining texnik topshiriq qismida ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Belgilangan talablarga nisbatan ustun takliflar bilan xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha takliflarga yo'l qo'yiladi. Bunda ustun takliflarni muvofiqligi va takliflarni qabul qilish bo'yicha qarorlar Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

7.3. II-bo'lim, texnik topshiriqda keltirilgan normalar va texnik topshiriqlarga mos kelmagan takliflar diskvalifikasiya qilinadi.

7.4. Tanlash ishtirokchisi tanlash predmeti bo'lgan Tovarlardan texnik baholash uchun bir birlikda namuna taqdim etishi lozim. Tovar namunalari quyidagi manzilga taqdim etiladi: Qarshi shahar Mustaqillik ko'chasi 1-uy.

Namuna taqdim etmagan tanlash ishtirokchilari tanlashdan chetlashtiriladi.

7.5. Tanlash ishtirokchisi texnik taklifda tovar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

8. Narx taklifi

8.1. Ishtirokchi narx taklifini tizim orqali elektron shaklda taqdim etishi lozim.

8.2. Ishtirokchining narx taklifi barcha xarajatlarini (soliqlar, xodimlarning ish haqi, yetkazib berish, o'rnatish va boshqalarni) o'z ichiga olishi shart.

9. Tanlash taklifining amal qilish muddati

9.1. Tanlash ishtirokchisining takliflari, tanlash takliflarini qabul qilish tugaydigan kun sifatida belgilangan sanadan boshlab kamida bir oy mobaynida kuchda qolishi lozim.

9.2. Ayrim hollarda komissiya tanlash ishtirokchisini taklifini amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimos qilishi mumkin. Bunday iltimos va unga javob xat ko'rinishida rasmiylashtiradi.

10. Tanlash takliflarini baholash tartibi

10.1. Tanlash o'tkazish to'g'risida e'lon muddati tugagandan so'ng tanlash takliflarini baholash uchun Komissiya tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni o'rganadi va baholaydi.

10.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tijorat takliflari qabul qilish so'ngi kuni tugagandan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak.

10.3. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan elektron taklifda barcha hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Komissiya ushbu taklifni rad etish xuquqiga ega.

10.4. Komissiya tanlash g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni tanlash hujjatlarida belgilangan mezonlarga ko'ra baholaydi.

10.5. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda soxta ma'lumotlar aniqlansa, Komissiya ushbu ishtirokchini tanlashdan chetlashtiradi.

10.6. Tanlash takliflarini baholash va tanlash g'olibini aniqlash tanlash hujjatlarida belgilangan mezonlarga asosan amalga oshiriladi (4-ilova).

10.7. Ishtirokchining taqdim etgan taklifi tanlash hujjatlari belgilangan talablariga javob bermasa, Komissiya taklifni rad etadi.

10.8. Tijorat takliflarini baholash jarayonida Komissiya tanlash ishtirokchilaridan ularning takliflariga nisbatan tushuntirishlar so'rashi mumkin. Ushbu jarayon belgilangan tartibda rasmiy

mohiyatiga, shuningdek narxning o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.9. Tanlash hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlarga asoslanib shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan (eng ko'p ball olgan) tanlash ishtirokchisi g'olib hisoblanadi.

10.10. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida qayd etiladi.

10.11. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan elektron shaklda imzolanadi.

10.12. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng, tanlovning har qanday ishtirokchisi buyurtmachiga tanlash natijalariga oydinlik kiritish to'g'risida so'rov yuborish xuquqiga ega. Buyurtmachi bunday so'rovni olgan kundan boshlab uch kun ish kuni mobaynida ishtirokchiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

11. Ishtirokchilarni saralashdan o'tkazish tartibi

11.1. Tanlashda ishtirok etish uchun korxona faoliyatiga oid barcha zarur hujjatlarni taqdim etmagan tanlashning quyidagi ishtirokchilari qo'yilmaydi:

belgilangan muddatda barcha zarur hujjatlarni taqdim qilmagan;

shartnoma tuzishga vakolatli bo'lmagan;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan;

qayta tashkil qilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;

tugatish bosqichida bo'lgan;

davlat buyurtmachisi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida bo'lgan;

insofsiz ijrochilarning Yagona reestrda bo'lgan;

davlat buyurtmachisi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmasiga olingan majburiyatlarni tegishli barmagan;

muassislari bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar.

11.2. Insofsiz ijrochilarning Yagona reestrda bo'lgan tanlash ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portaliga murojaat qiladi.

12. Shartnoma imzolash

12.1. Buyurtmachi mazkur Tanlash hujjatlarining III-bo'limida keltirilgan shaklga muvofiq tanlash ishtirokchisi bilan 10 (o'n) kun mobaynida shartnoma imzolashi lozim.

12.2. Tanlash g'olibi tanlash shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi. Bunda zaxira ijrochisi tanlash g'olibi taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

12.3. Miqdoriy, sifat va texnik parametrlari bo'yicha shartnomani bajarmagan tanlash g'olibi qonun hujjatlari va/yoki shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

13. Tanlashni o'tkazilmagan deb e'lon qilish

13.1. Tanlash quyidagi holatlarda Komissiya tomonidan o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:

tanlashda bitta yoki birorta ishtirokchi ishtirok etmagan bo'lsa;

takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra Komissiya barcha takliflarni rad etgan bo'lsa;

faqatgina bitta taklif tanlash hujjatlari talablariga muvofiq kelsa tanlash o'tkazilmagan deb topiladi.

Tanlash talablariga doir biror o'zgartirish kiritish zarurati paydo bo'lganda Komissiya asoslarni keltirgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

II. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI

№	Tovar nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Summasi
1	ЛОГОТИПЛИ ПОСТЕЛЬНОЕ БЕЛЬЁ	КОМПЛЕКТ	168	360 000	60 480 000
2	ЛОГОТИПЛИ СОЧИҚЛАР	КОМПЛЕКТ	168	205 000	34 440 000
Jami			xx	xx	94 920 000

III . TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARIGA ILOVALAR

(Ishtirokchining firma blankasida)

Tashlash ishtirokchisi haqidagi umumiy ma'lumotlar

[Tanlash ishtirokchisi quyida keltirilgan yo'riqnomalarga muvofiq ushbu shaklni to'ldirishi lozim.
Taklif qilingan formatda hech qanaqa o'zgartish va almashtiruvga yo'l qo'yilmaydi.]

Sana: [tanlash taklifi berilgan sana (yil, kun, oy) yozilsin]
№ _____

1. Tanlash ishtirokchisi nomi [Ishtirokchining rasmiy nomi yozilsin]
2. Ro'yxatga olingan joydagi Tanlash ishtirokchisi manzili: [Ro'yxatga olingan joyda Tanlash ishtirokchisining yuridik manzili yozilsin]
3. Tanlash ishtirokchisi ro'yxatga olingan guvohnoma ma'lumotlari: [ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvoxnoma ko'rsatilgan sana, qayd raqami]
4. Tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili to'g'risidagi ma'lumotlar Ismi: [vakolatli vakilning ismi yozilsin] Manzili: [vakolatli vakilning manzili yozilsin] Telefon/faks: [vakolatli vakilning telefon/faks raqami yozilsin] Elektron pochta manzili: [vakolatli vakilning elektron pochta manzili yozilsin]
5. Bank rekvizitlari:
6. Ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ustav kapitali (ustav fondi, ustav jamg'armasi yoki boshqa) ning miqdori: _____
7. Tanlash ishtirokchisining ta'sischilari to'g'risidagi ma'lumotlar: - [ta'sischilarning to'liq ismi yozilsin] - ...
8. Faoliyatning asosiy yo'nalishlari: [asosiy faoliyat yo'nalish ko'rsatilsin]
9. Hujjatlar asl nusxalarining ilova qilinayotgan nusxalari: [ilova qilinayotgan nusxalarning nomi] ☐ yuqorida qayd qilingan ishtirokchining ro'yxatga olish guvohnomasi va boshqa hujjatlar.

Talab qilinayotgan yoki shunga o'xshash xizmatlarni bajarish tajribasi haqida ma'lumot

№	Yetkazib berilgan tovar (xizmat) nomi*	Xaridor nomi, uning manzili va aloqa ma'lumotlari*	Vaqt (muddatlari)*	Eslatma*

* Izoh: yetkazib berish tajribasi ilgari tuzilgan shartnoma nusxasini taqdim etish bilan tasdiqlanadi.

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxsning F.I.O. va lavozimi)

M.O'.

Sana: « ____ » _____ 20__ y.

(Ishtirokchining firma blankasida)

Tanlash xarid komissiyasi raisiga

KAFOLAT XATI

Tanlash hujjatlarini o'rganib chiqib, ushbu kafolat xati bilan biz _____ (tanlash ishtirokchisining to'liq nomi) quyidagilarni:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligimizni;
- Davlat buyurtmachisi (Davlat buyurtmachisi to'liq nomi) bilan sud yoki hakamlik holatida emasligimizni;
- Davlat buyurtmachisi (Davlat buyurtmachisi to'liq nomi) bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarning mavjud emasligini;
- insofsiz ijrochilarning yagona reestrda mavjud emasligimizni tasdiqlaymiz.

F.I.O. *[korxona rahbari yoki ishonchnomaga muvofiq vakilning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilsin]*.

_____ *[taklifini imzolagan mas'ul shaxsning lavozimi ko'rsatilsin]*.

_____ *[familiyasi yuqorida qayd qilingan mas'ul shaxsning imzosi]*.

m.o'.

20__ yil «__» _____ dagi ____-sonli ishonchnoma bo'yicha

_____ *{Ishtirokchining to'liq ismi ko'rsatilsin}* nomidan va topshirig'i bo'yicha tanlash taklifini imzolashga barcha vakolatlarga ega bo'lgan shaxs (ishonchnoma asosida imzolangan taqdirda ko'rsatiladi).

(Ishtirokchining firma blankasida)

№ __ va __ sana

_____ sonli lot bo'yicha **texnik taklifi** jadvali

№	Tovar nomi	Texnik tavsif
1	...	[Taklif etilayotgan tovar to'g'risida to'liq ma'lumot yozilishi lozim]

Kafolat muddati _____

Yetkazib berish muddati _____

[Servis ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar ilova qilinishi lozim]

Boshqa texnik ma'lumotlar _____

F.I.O. [korxona rahbari familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilsin].

«_____» [taklifni imzolagan mas'ul shaxsning lavozimi ko'rsatilsin].

«_____» [familiyasi yuqorida qayd qilingan mas'ul shaxsning imzosi].

m.o'.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini baholash tartibi va mezonlari

Tanlash ishtirokchilarning malakasini baholash Xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Taklifning malakaviy qismi uchun umumiy beriladigan ball 20 ballni tashkil etadi.

Ishtirokchi tomonidan talab etilgan ma'lumotlar taqdim qilinmagan bo'lsa, Komissiya uni tanlashda ishtirok etishga yo'l qo'ymaslik xuquqiga ega.

1. Dastlabki korxona faoliyatini baholash mezonlari

№	Mezon	Izoh	Baholash
1	Tanlash ishtirokchisining umumiy faoliyati haqida ma'lumotnoma	Ha / Yo'q (ishtirokchining ma'lumotnomasi asosida baholanadi)	Ha – 5 ball Yo'q (ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball
2	Tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati	Ha / Yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida baholanadi)	Ha – 5 ball Yo'q (ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball
3	Tanlash ishtirokchisining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida soliq organidan olingan ma'lumotnoma	Ha / Yo'q (ishtirokchining ma'lumotnomasi asosida baholanadi)	Ha – 5 ball Yo'q (ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball
4	Ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	Mavjud / Mavjud emas	Ha – 5 ball Yo'q (ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball

2. Taklifning texnik qismini baholash

Takliflarning texnik qismini baholash Tanlash hujjatlariga asosan Komissiya tomonidan (zarur hollarda mutaxassis jalb qilgan holda) amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismida ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan namuna baholanadi. Texnik taklif uchun beriladigan umumiy ball 70 ballni tashkil etadi. Texnik baholashdan o'tmagan (ballar natijalariga ko'ra 40 ball va undan kam ball to'plagan) Tanlash ishtirokchilarining takliflari keyingi ko'rib chiqishdan rad etiladi.

Texnik baholash mezonlari

№	Mezon	Izoh
1	Texnik topshiriq talablariga muvofiq taqdim etilgan mahsulot namunasi sifatiga ko'ra eng yuqori ball bilan baholanadi	Maksimal beriladigan ball – 70 ball Texnik taklif (mahsulot namunasi) taqdim etilmasa - 0 ball

3. Taklifning narx qismini baholash

Xarid komissiyasi tomonidan takliflarning narx qismi ishtirokchilarning elektron tijorat takliflari asosida tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Taklifning narx qismi uchun maksimal beriladigan ball 10 ballni tashkil etadi. Eng past narx/qiymat eng yuqori ball bilan baxolanadi. (maksimal ball indikatorning minimal ko'rsatkichga beriladi)

4. Takliflarni kompleks baholash

Takliflarni kompleks baholash xarid komissiyasi tomonidan olingan quyidagi ma'lumotlar natijalariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

- 1). Texnik qismini baholash;
- 2). Narxni qismini baholash

№	Mezon		Barcha toifalar bo'yicha umumiy baholash
			100 ball
1.	Texnik-malakaviy qismini baholash		90 ball
	1.1	Malakaviy qism	20 ball
	1.2	Texnik qism	70 ball
2.	Narxni baholash		10 ball
	2.1	Narx qismi	10 ball